



MASOFAVIY TA'LIM

Xamidov Salohiddin

*Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani 3-sonli politexnikum, ingliz tili
o'qituvchisi*

Annotatsiya: Masofaviy ta'lim (online learning) bugungi kunda ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylangan. Ushbu maqolada masofaviy ta'limning mohiyati, pedagogik va texnologik asoslari, afzallik va cheklovlari tahlil qilinadi. Masofaviy ta'lim o'quvchilarga geografik va vaqt cheklovlaridan mustaqil ravishda ta'lim olish imkonini beradi, mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantiradi va raqamli vositalardan samarali foydalanishni rag'batlantiradi. Maqolada shuningdek, onlayn platformalar (Learning Management Systems – LMS), videodarslar, interaktiv mashg'ulotlar va elektron resurslardan foydalanish orqali o'quv jarayonini samarali tashkil etish yo'llari ko'rib chiqiladi. Masofaviy ta'limning pedagogik, ijtimoiy va texnologik jihatlari, o'quvchilarning motivatsiyasi va natijadorligini oshirishdagi roli ham yoritilgan. Shu bilan birga, ta'lim jarayonida yuzaga keladigan muammolar va ularni bartaraf etish strategiyalari ham tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Masofaviy ta'lim, onlayn ta'lim platformalari (LMS), raqamli ta'lim vositalari, elektron resurslar, interaktiv o'quv jarayoni, ta'limning samaradorligi, mustaqil o'rganish ko'nikmalari, pedagogik texnologiyalar, o'quv motivatsiyasi, ta'limning ijtimoiy va texnologik aspektlari.

Dunyo ta'limi tizimiga masofaviy ta'lim ta'limning alohida shakli sifatida jadallik bilan kirib kelmoqda, interfaol ta'lim sifatida joriy etilmoqda. Masofaviy ta'lim axborot texnologiyalari, telekommuni-katsiyalar asosida kechadigan pedagogik jarayondir. Masofaviy ta'lim o'quv resurs markazlari, internet, pochta



aloqalari orqali amalga oshiriladi. Masofaviy ta'lim asosan virtual slaydlar orqali beriladi. *Masofaviy o'qitish* - bu maxsus psixologik-pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalar muhitida, bir-biridan uzoqda bo'lgan qatnashchilarning bilvosita aloqasiga asoslangan holda bilim, malaka, ko'nikma va ularni egallash usullarini uza-tish va o'zlashtirish jarayonidir. Masofaviy ta'limning o'ziga xos muhim jihatlari:

-ta'lim oluvchining axborotni yaratuvchi va uni yetkazuv-chi manbadan uzoqligi;

- texnologik jihatdan muloqot muhitining, shuningdek, psixologik va pedagogik jarayon muhitlarining o'ziga xosligi;

- masofaviy o'qitish jarayoni qatnashchilarning axborot texnologiyalari vositalari yordamidagi sinxron va asinxron mulo-qotiga asoslanganligi;

- ta'lim oluvchilarning ta'lim dasturlarini tanlash va o'qish trayektoriyalarini belgilashlaridagi erkinliklari;

- ta'lim oluvchining, asosan, mustaqil ravishda, kompyu-ter texnologiyalaridan foydalangan holda o'z ustida astoydil ishlashi.

Masofaviy ta'lim shaxsni o'z-o'zini rivojlantirishga, kelajakda zarur mutaxassis bo'lishga yo'naltiradi. Masofaviy ta'limni joriy qilishning modelini belgilab olish strategik rejalashtirish nuqtayi nazaridan muhim. Masofaviy o'qitishning o'quv, o'quv-uslubiy, o'quv-me'yoriy va didaktik materiallarini tayyorlash, ularni optimallashtirish, sistemalashtirish, dizayn, shuningdek, o'quv jarayonini tashkil qilish ishlari ilgaridan tanlangan model loyihalar asosida amalga oshiriladi.

O'zbekistonda ta'lim jarayonida AKTni va masofaviy ta'limni qo'llash bo'yicha keng qamrovli ishlar olib borilmoqda va uning huquqiy va me'yoriy asoslari yaratilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 30- maydagi



Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot texnologiyalarini joriy etish to'g'risida"gi PF-3080 sonli farmoniga binoan:

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 6- iyundagi Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 200-sonli Qarori;

-O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 11-dekabrda qabul qilingan „Axborotlashtirish to'g'risida" gi Qonuni;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 8-iyuldagi „Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlanti-rishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF 117-sonli Qarori;

- Xalq ta'limi vazirligi tomonidan 2004-yil 12-oktabrda qabul qilingan „Ta'lim muassasalarini yagona axborot makoniga aylantirish, integratsiyasini chuqurlashtirishni hisobga olgan holda zamonaviy maktabni jihozlash Konsepsiyasi";

- O'zbekiston Respublikasining Osiyo Taraqqiyot Banki bilan hamkorlikda amalga oshirayotgan „Ta'lim sektorini rivoj-lantirish dasturi" hamda „Umumta'lim maktablariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish" loyihalari;

-O'zbekiston Respublikasining Koreya Respublikasi bilan hamkorlikda amalga oshirayotgan „O'zbekiston Respublikasi umumta'lim maktablarini axborotlashtirish" loyihasi;

- Xalq ta'limi vazirligining 2006-yil 3-avgustdagi 2006-2007-o'quv yilini „Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kadrlari salohiyatini oshirish o'quv yili" deb nomlash to'g'-risida"gi 6/5-sonli buyruqlari.

Yuqorida qayd etilgan konsepsiyalar, loyihalar va Xalq ta'limi vazirligining buyruqlari ta'lim jarayonida AKTlarni qo'llash va bu orqali ta'lim sifati va



samaradorligini oshirishga qaratilgan. Masofaviy o'qitish jarayoni ta'lim sohasiga nafaqat zamo-naviy pedagogik va axborot texnologiyalari, balki bir qator yangi tushuncha va atamalarni olib kirdi:

- virtual sinf (guruh);
- o'qitishning ta'minoti,
- o'quv-telekommunikatsiya loyihalari;
- teskari aloqa;
- dialogli texnologiya;
- kompyuter aloqasi;
- telekonferensiya
- koordinator, moderator, telekonferensiya fasilitatorlari, tyutor.

Yuqoridagi maqsadlarni amalga oshirishda o'qituvchi shaxsidan, ta'limda yangi axborot-kommunikatsiyalaridan unumli foydalanish, masofaviy ta'limni o'quv jarayoniga kiri-tishda quyidagi texnologiyalardan keng foydalanish va amalda joriy etish talab etiladi. Ular:

- elektron darsliklar, tyutorlar, trenajorlar, laboratoriya amaliyotlari, test tizimlaridan iborat kompyuterli o'qish das-turlari;
- personal kompyuterlar, videotexnika, optik diskli axborot to'plagichlardan foydalanish asosida yaratilgan multimedia texnologiyalari asosidagi o'qitish tizimlari;
- turli o'quv fani, predmetlari sohalarida foydalaniladigan intellektual va ekspert o'qitish tizimlari;
- fan, o'quv predmeti sohalar bo'yicha ma'lumot bazalari;



- elektron pochta, telekonferensiyalar, lokal va aloqa tar-moqlari, ma'lumotlar almashinuvi tarmoqlari;

-elektron kutubxonalar, markazlashgan va tarqoq, tarmoq holdagi nashriyot tizimlarini o'z ichiga oladi.

Bu talablarni amalga oshirish va loyiha dasturlarini yaratish, tarqatish maqsadida multimedia ta'limi dasturlarini rivojlantirish markazi ishlab turibdi. Markaz buyurtmachi sifatida ish yuritadi, muvofiqlashtirish ishlarini olib boradi. Masofaviy ta'limning o'quv jarayoniga kiritilishi bilan o'quv-chilarda axborot bilan ishlash madaniyati o'smoqda va shakllanmoqda. Axborot madaniyati - o'quvchining kundalik hayoti va faoliyatida axborot texnologiyalarining barcha turlaridan o'quv-biluv jarayonida foydalana olish ko'nikma va malakasidir. Ta'lim tizimi oldida keng o'quvchilar ommasini axborot olish va qayta ishlash madaniyatini o'stirish va shakllantirishdek vazifalar turibdi. Bu jarayonning muvaffaqiyatli kechishida o'qituvchining o'zi tobora maslahatchiga, yo'l-yo'riq ko'rsatuvchiga, o'quv jarayonining boshqaruvchisiga aylanib boradi. O'qituvchi axborot egasi, tarqatuvchi funksiyalarini axborot texnologiyalari zimmasiga yuklab boradi. Bunda bosh masala bilimlar va bilimlar olamiga kirishi, u bu olamning resurslaridan qanday foydalana olishi va o'zlashtira olishiga bog'lanib qoladi. O'quvchi axborot ummonida yangicha qoidalarni o'rganishi, barcha o'quv fanlari kesimida axborot olishi, uni qayta ishlay olishi zarur bo'ladi. Ta'limda o'qitishning va bilimlarni o'zlashtirishning nutq, so'z, tovush bilan bog'langan usullari ikkinchi navbatga o'tib, o'qitishning tasavvurlar, shakllar, rang, tasviriy ko'rsatuvlar bilan bog'liq usullari birinchi o'ringa o'ta boshlaydi. Global kompyuter tarmoqlarining paydo bo'lishi kishilar muloqotining kitob, gazeta va televideniyadan farq qiluvchi yangi o'ziga xos usul va shakllarini vujudga keltirmoqda. Bu usullar endi kishilik munosabatlarining yangi shakllari, faoliyatlarining yangicha turlari, tafakkur qilish va o'zini o'zi anglashning o'zgacha tarzi bilan xarakterlanadi.



Masofaviy ta'limga kompyuter texnikasining kirib kelishi muammoni inson-kompyuter" munosabatlarini keltirib chi-qaradi. Hozirgi kunda bir qator mamlakatlarda masofaviy ta'lim amaliyotida masofaviy ta'limning quyidagi ikki modeli qo'llanilyapti:

I.O'qitishning kunduzgi-sinf-dars va masofaviy integra-tsiyasiga asoslangan model. Bu model asosidagi masofaviy ta'limda yagona jarayonning bir qismi sinf-dars shaklida, qolgan boshqa qismi masofaviy shaklda o'tkaziladi.O'qituvchi bu jarayonni samarali tashkil qilishdan oldin loyihalaydi - o'quv predmetining qaysi qismini sinf-dars shak-lida, qaysi qismini masofaviy olib borishni rejalaydi. Bu o'qituvchi rahbarligida va uning ssenariysi asosida o'tadi. Bunda ta'lim oluvchining o'quv jarayoniga ta'sir etishi nazarda tutilmaydi. Bu model ikki variantga ajratiladi.

Birinchi variantda mashg'ulotlar asosiy (bazaviy) sinf-dars shaklida, o'quvchilarning bir qismi esa masofaviy shaklda ta'lim oladilar. O'quvchilarning bu qismini materiallar bilan ta'minlash va modelni amalga oshirish uchun maxsus sayt ochilib, unga kerakli materiallar joylashtiriladi.

Ikkinchi variantda esa asosiy mashg'ulotlar masofaviy asosda olib boriladi. Ta'lim oluvchilar vaqt-vaqti bilan ta'lim muassasasida tahlil, ma'ruzalar, seminarlar, amaliy va labo-ratoriya mashg'ulotlarini bajarish, masofadan egallagan bilim va malakalari bo'yicha muhokama-munozaralarga qatnashadilar.

II.Kompyuter aloqa tarmog'ida o'qitishga asoslangan model. Bu model quyidagi 3 variantda amalga oshirilishi nazarda tutiladi:

Birinchi variant. Tarmoq orqali avtonom kurslarni o'qitish (ayrim faktlar bo'yicha maxsus kurs profilli yo'nalish, til o'rganish va hokazo). Modelning bu variantini amalga oshirishda ta'lim oluvchilarga kerak bo'ladigan barcha materiallar (o'quv-tematik rejalar, modullar, qo'shimcha materiallar, turli xil WEP-sahifalar, testlar va h.k.) ta'lim muassasasining saytida joylashtiriladi. Bu variantda o'qituvchi



bilan yuzma-yuz uchrashuv nazarda tutilmaydi. Barcha jarayonlar tartib bilan amalga oshiriladi.

Ikkinchi variant. Axborot-ta'lim muhiti. Bunday holda barcha materiallar virtual muassasaning ichida joylashtiriladi. Ta'lim oluvchi uchun bo'ladigan barcha materiallar (shu jumladan, nazorat materiallari va nazorat o'tkazish mexanizmi) shu por-talning u yoki bu qismida joylashadi. Bir qator chet mamlakatlarning ochiq universitetlari"da masofaviy ta'lim aynan shu model asosida olib borilayotganligini kuzatish mumkin.

Uchinchi variant. Keys-texnologiyaga asoslangan tarmoq o'quvchilari. Bu model masofadan o'qitishni tashkil qiluvchi ta'lim muassasasi tomonidan o'qitish vositalarining kompleksi sifatida tayyorlanadigan masofadan o'qitishning barcha materiallari, vazifalar, tavsiya hamda ko'rsatmalar va boshqalardan iborat majmuani pochta orqali ta'lim oluvchiga yetkazishni nazarda tutadi. Qog'ozga tushirilgan, shuningdek, elektron-axborot tashuvchi vositalarga kiritilgan materiallardan iborat bo'ladi. Keys-texnologiyada disklarga yozilgan yoki videokassetalarga tushirilgan videomateriallar, CD-ma'ruzalar, videokliplar, ilustrativ-izohli ma'ruzalar keng o'rin oladi.

Masofaviy ta'lim jarayonini boshqarish va nazorat qilish, asosan, Internet texnologiyalari yordamida amalga oshiriladi. O'qituvchi bilan ta'lim oluvchilar orasidagi o'zaro aloqalar, ta'lim oluvchilarning o'zaro aloqalari elektron pochta, Internet orqali amalga oshiriladi. Bunday ta'limni amalga oshirishda ta'lim muassasasining saytida keysga ilova sifatida:

- turli xil qo'shimcha materiallar, ma'lumot-axborot vosi-talari, shuningdek, boshqa saytlarga murojaatlar;

- avtomatik boshqaruvni nazarda tutuvchi nazariy ishlar,testlar,



- ma'lum bir masala yoki muammoni jamoaviy tarzda mu-hokama qilish uchun telekonferensiya Web-sahifasi;

- maxsus xonalar, shuningdek, paydo bo'ladigan muassa-salar savollariga javob topish hamda o'qituvchilarning konsul-tatsiyasidan foydalanish uchun forum;

-videokonferensiya (imkon darajasida) joylashtiriladi.

Bu modelda o'quv materiali ta'lim oluvchi tomonidan, aso-san, mustaqil o'zlashtirilishi, lekin keysda ko'rsatilgan ba'zi vazifalarni bajarishda o'qituvchi va o'quvchi, shu bilan birga, o'quvchilar o'rtasida virtual hamkorlik nazarda tutiladi. Endi loyiha g'oyalariga mos modelni aniqlash yoki bosh-qacha qilib aytganda, bu g'oyalarning yuqorida ko'rib chiqilgan modellarining qaysi birini tanlab olish kerakligini ko'rib chiqamiz. Yuqorida sharhlangan modellarga yana bir nazar tashlasak, masofadan o'qitishning integratsiyasiga asoslangan modelda mashg'ulotlarning qaysidir bir qismi baribir sinf-dars shaklida o'tkazilishini nazarda tutilishi bilan masofadan o'qitishning saytli o'qitish" modelining „keys-texnologiya" variantida ham garchi ta'lim oluvchilar va o'qituvchilarning yuzma-yuz ro'para bo'lishlari inkor qilinishi bilan ba'zi bir jihatlari mos kelmaydi.

Masofaviy ta'lim o'ziga xos quyidagi xususiyatlarga ega:

-jadval asosida o'qitish. Har bir o'quvchi tanlagan muta-xassisligi bo'yicha kursni o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan ix-tiyoriy muddatda o'qiydi;

-parallel o'qish imkoniyatining mavjudligi. O'qish ishdan ajralmagan holda amalga oshiriladi;

- o'quvchi va tyutorning ta'lim muassasasi qayerda joy-lashganligiga bog'liq emasligi. Ta'lim xizmat qilish markazlari va muassasalariga qatnamasdan, ya'ni yo'l, turar joy, ovqatlanish va xonalar ijarasiga ketadigan xarajatlarsiz amalga oshiriladi;



-bilimlarni sirtidan nazorat qilish imkoniyatining mavjud-ligi. Obyektiv nazoratning qiyinligi va o'quvchida noto'g'ri fikr masalan, bilim olish uchun emas, attestat olish uchun o'qish mo'ljallangan) bo'lsa, ta'lim olishni suiiste'mol qila oladi;

-o'quv-metodik materiallarni taqdim qilish maxsus shaklining ustunligi;

-o'quvchilarning ta'lim muhitida mustaqil ishlash ko'nik-malarini jadallashtirish imkoniyati borligi.

Masofaviy o'qitishning tamoyillari:

1. Start bilimlari tamoyili.
2. O'qitishda individuallik tamoyili.
3. Interfaollik tamoyili.
4. Indentifikatsiya tamoyili.
5. O'qitishning reglamentlik tamoyili.
6. Yangi axborot texnologiyalari vositalarini qo'llashning pedagogik jihatdan maqsadga muvofiqlik tamoyili.
7. O'qitishning ochiqligi va moslashuvchanligini ta'minlash tamoyili.

Masofaviy o'qishni tashkil etishda quyidagilarning bo'lishi muhim:

-masofaviy o'qitish kursi haqidagi umumiy ma'lumotlar, uning maqsadi va vazifalari, mazmuni (strukturasi), o'quv gu-ruhlariga qabul shartlari va boshqa shartlar bo'yicha tegishli ma'lumotlar;

-kursning fanga tegishli sohasi bo'yicha ma'lumot mate-riallari (ma'lumotlar bazasi sifatida);



-foydalanuvchilar bilan muloqot o'rnatish, kerakli ma'lu-motlarni olish imkoniyatini beradigan aloqa manzillari (e-pochta yoki boshqa manzillar, telefonlar);

-muayyan modullarga bo'lib chiqilgan, ya'ni struktura-lang'an o'qitish kursi (elektron darslik);

-o'quv materiallarini o'zlashtirishga, olinayotgan bilim-larni tekshirishga, reyting nazoratini o'tkazishga mo'ljallangan topshiriqlar to'plami;

-o'zlashtirilgan bilimlarni va ko'nikmalarni mustaqil qo'l-lashga, foydalanishga, konkret olingan muammolarni hal etish-ga qaratilgan ijodiy yondashish masalalari va topshiriqlarining, individual yoki birgalikda o'tkaziladigan amaliy ishlar to'plami;

-o'quvchilarning mustaqil faoliyatlari qay darajada bori-shini uzluksiz ravishda baholab borishga qaratilgan monitoring bloki.

Bu o'quvchini mustaqil o'qish, o'rganish, o'zlashtirish jarayonida faol pozitsiyada turish muhitini yaratadi. Kreativ ta'lim o'quvchining ijodiy qobiliyatini takomil-lashtirish metodiga yo'naltirilgan bo'ladi. Ayniqsa muammoli, loyihalashtirilgan va jadallashtirilgan ta'limlarning qo'llanishi o'quvchida yaratuvchanlik, bunyodkorlik qobiliyatlarining o'sishiga olib keladi. An'anaviy shaklda olib boriladigan ta'lim o'quvchiga ilgari-dan ma'lum axborot, bilim, tushuncha, ko'nikma va malaka-larni berish bilan chegaralanadi. Lekin kreativ oriyentatsiyadagi darslar jarayonida qabul qi-luvchi obyekt-dan ijodkor (kreativ) subyektga aylanadi. Har bir faktik materialga ijodiy va tanqidiy qaray oladi. Olinayotgan o'quv materiali unga yangicha qarash, qo'shimcha materiallarni olish, o'zlashtirishga yo'l ochadi. Ko'pincha, bunday hollar o'zlash-tirishga evristik yondashuvni shakllantiradi. Bu esa mutaxassislarni kelajakda olgan bilim, ko'nikmasi-ning faqat ijrochisigina bo'lib qolmay, balki o'z kasbiy faoliyatiga ijodkorlik, yaratuvchanlik asosida qarashga olib keladi.



Hozirgi kun ta'lim tizimining bosh va asosiy maqsadi ham ijodiy fikrlaydigan mutaxassislarni va yuksak darajadagi fikr yurituvchi shaxsni tarbiyalash va tayyorlashdan iborat. Sir emaski, mamlakat taraqqiyotida texnologiya, xomashyo, jihozlar, energoresurslar, ekologik o'zgarishlar borgan sari glo-ballashib, uning boshqaruvchisidan yuksak mahorat egasi bo'lishni talab etmoqda. Umuman ta'lim tizimida ham uning dasturlari, mazmuni, standartlari takomillashib bormoqda. Bunday tezkor o'zgarishlar bilim olishning yangi texnologiya-lari, masofaviy, loyihalangan ta'lim, media ta'limini, ya'ni shaxsiy ijodkorlikka asoslangan ta'limni joriy qilish ehtiyojini keltirib chiqarmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullaev, S. (2020). Masofaviy ta'lim texnologiyalari va ularning samaradorligi. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti.

2. Aliyev, R. & Karimova, D. (2019). Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida ta'lim jarayoni. Toshkent: Fan va Texnologiya.

3. Boev, B. (2018). Onlayn ta'lim va pedagogik innovatsiyalar. Moskva: Nauka.

4. Clark, R. C., & Mayer, R. E. (2016). E-learning and the Science of Instruction: Proven Guidelines for Consumers and Designers of Multimedia Learning. Hoboken, NJ: Wiley.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 30-maydagi PF-3080 sonli Farmoni. Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot texnologiyalarini joriy etish to'g'risida. Toshkent.



6.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 6-iyundagi 200-sonli Qarori. Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va AKTni joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida. Toshkent.

7.O‘zbekiston Respublikasi Qonuni (2003). Axborotlashtirish to‘g‘risida. Toshkent.

8.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 8-iyuldagi PF-117 sonli Qarori. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida. Toshkent.

9.Xalq ta’limi vazirligi (2004). Ta’lim muassasalarini yagona axborot makoniga aylantirish va zamonaviy maktabni jihozlash konsepsiyasi. Toshkent.

10.Xalq ta’limi vazirligi (2006). Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kadrlari salohiyatini oshirish o‘quv yili bo‘yicha 6/5-sonli buyruq. Toshkent.

11.Salmon, G. (2013). E-tivities: The Key to Active Online Learning. London: Routledge.

12.O‘tkir, J. (2017). Masofaviy ta’limning psixologik va pedagogik asoslari. Toshkent: Pedagogika.

13.Karimov, B. (2019). Onlayn platformalarda interaktiv o‘quv jarayoni. Toshkent: Axborot-resurslar nashriyoti.